

Metaforaning Tasniflanishiga Doir (Iqbol Mirzo She'riyati Misolida)

*Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi*¹

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning ishqiy mavzuga bag'ishlangan "Ko'nglingda nima bor, bilmayman" she'riy turkumida qo'llangan metaforalar tahlil qilingan. Shuningdek, to'plamdagi she'rlar metaforaning hosil bo'lish shakli, harakati va belgisiga qarab guruhlariga ajratilgan. Maqolada differensial (farqlovchi) tahlil metodidan foydalanilgan bo'lib, metaforik hodisalar va birliklarni o'zaro farqlovchi ma'noviy va shakliy xususiyatlariga qarab guruhlariga ajratilgan va differensial tahlil jarayoni amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: antropomorfik metafora, zoomorfik metafora, fitomorfik metafora, kosmomorfik metafora, abiomorfik metafora, temorfik metafora.

Ma'lumki, jahon tilshunosligida tadqiqotchilar e'tiborini eng ko'p o'ziga jalb qilayotgan badiiy tasvir vositalaridan biri metaforadir. Metafora juda keng miqyosli hodisa bo'lib, metaforik qo'llangan so'z sintaktik-stilistik chegaralarni bilmaydi. Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llangan metaforalar tanlanishiga ko'ra matn mazmuniga to'la mos keladi, obrazlilik, jozibadorlik, ta'sirchanlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini o'zida namoyon etadi. Metafora hodisasi tadqiqotchilar tomonidan shaklan, usluban, vazifasiga ko'ra, nimani ifodalab kelishiga ko'ra va boshqa bir necha jihatdan tasnif etilgan. Xususan, A. Xo'jamqulov metaforalarni quyidagicha tasniflaydi²: *antropomorfik metafora, zoomorfik metafora, fitomorfik metafora, kosmomorfik metafora, abiomorfik metafora*.

X. Ibragimov esa shu metafora tasnifiga *teomorfik* metafora guruhini qo'shishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi va antropotsentrik metafora teomorfik metafora tizimida ham ko'plab uchrashini, *farishta, shayton, jin* kabi so'zlarning insonga nisbatan qo'llanishi orqali metaforik ma'no hosil bo'lishini ta'kidlaydi³. Biz ushbu maqolada yuqoridagi metaforik ma'no tasnifi haqidagi qarashlarga tayangan holda, sevimli shoirimiz Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llangan metaforalarni har bir tur bo'yicha she'rlardan olingan misollar yordamida guruhlab tahlil qilishga harakat qildik.

1. Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo'lgan (tana a'zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo'lib, oyoq, qo'l, og'iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa kabi leksemalar ma'nosining metaforik ko'chishi. Ularga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Seskandim. Sochimning ostigacha ter,

Osmon kemshik tishini ko'rsatib kuldi.

O'tlarga o'ranib qunush tortdi yer...

Tushimda eng yaqin odamim o'ldi. (173)

Berilgan misrada osmon so'zi bilan bog'liq metafora hosil qilingan. Masalan, ikkinchi misrada qo'llangan *tish* so'zi metaforik ifoda sanaladi, shuningdek, unda sinkretizmni kuzatishimiz mumkin, ya'ni *kulmoq* leksemasi ham jonlantirish usulini yuzaga chiqargan. **Osmonning tishi // kulishi**

¹ Andijon davlat universiteti lingvistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

² Xo'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvist. 2-kitob.-T.: Akademiya nashri, 2011.- B.85-88

³ Ibragimov X. O'zbek tilida teomorfik metaforalar va ularning badiiy matndagi o'rni. "Davlat tili taraqqiyoti: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjuman materiallari Toshkent, 2022.-B.45



metaforik ifoda. Bu ma'noni yanada bo'rttirish uchun **kemshik** so'zi qo'llangan bo'lib, bu orqali ko'chimdagi baho munosabati oydinlashgan. Bu original tasvir vositasi bo'lib, shoir topilmasidir.

Dilimda tuguncha, qora tuguncha –

Mengacha kimnidir sevganing yomon.(78)

Yupqapo'choq bodomning

Ilma – teshik ko'zi bor.

Bodomchadek yurakda

Tikonlarning izi bor.

Tog'lar ko'rkam ko'rinar

Boshidagi qor sabab.

Boshimdagi qirovlar

Ul bevafo yor sabab.(118)

Yuqorida keltirilgan misralarda **tuguncha (qora)**- gumon; **ko'z (yupqapochoq bodomning ilma teshik)** - aynan nima nazarda tutilgani aniq emas, yo'llovchi metafora; **iz (tikonning)**- mavhum **g'am-g'ussadan qolgan asorat;qirov (boshimdagi)**-oqargan soch so'zlari o'xshatishli ko'chim sanaladi. Shoir narsalarda betakror tasvir ifodasi yaratganki, lol qolasiz. Birgina **bodomning ko'zi** metaforik birikmasiga e'tibor berilsa, unda **yupqa po'choq, ilma-teshik** kabi bodomning turi va uning holati va boshqa bir so'z bilan ifodalay olmaydigan, baho berolmaydigan murakkab sifatleri misraga shunday mohirona joylanganki, buni faqatgina metafora vositasidagina anglash mumkin. Bunday tasvirni musavvir ham chiza olmasa kerak.

2. Zoomorfik metafora. Bu hayvonlar va ularning tana a'zolari nomini ifodalagan leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi hisoblanadi. O'zbek tilida hayvon nomlari bilan ifodalangan metaforalar juda kam hollarda ijobiy ma'nolarni anglatadi. Ijobiylik hayvonlarning bolalari nomlari bilan hosil qilinadi: qo'zichog'im, toychoq'im, bo'talog'im, qulumini kabi. Bu so'zlar - choq, - loq erkalash qo'shimchasi va egalik qo'shimchasi – im bilan ifodalanadi.⁴Bunday metaforalar shoir she'rlarida nisbatan kamroq kuzatiladi. Quyida ularga ayrim misollarni keltirib o'tamiz. Masalan:

Mohitobonmisiz bulutga tutqun?

Yoki jayronmisiz burgutga tutqun?

Yoki soyning ermagi – sumbulimisiz?

Kulsangiz ham bunchalar qayg'ulisiz?

Qorako'z qaldirg'ochoyimsan o'zing,

Ko'zim giryon bo'ldi seni sog'inib. (65)

Yuqorida keltirilgan misollarda ham **jayron, burgut, qaldirg'ochoyim, sumbul** so'zlari bilan bog'liq holda metaforik ko'chimlar yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

3. Fitomorfik metaforalar. Bu daraxt, o'simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma'nosining ko'chishi natijasida hosil bo'lgan metafora hisoblanadi. Har bir xalq o'zining yashash tarzi, dunyoqarashi asosida o'simliklar dunyosini ko'radi. N.Pazlitdinova metafora asosida hosil qilingan fitonimlarni qanday navni ifodalashiga ko'ra quyidagicha guruhlaydi:⁵

⁴Ўринов Б.Хайвон номлари билан ифодаланган метафораар ҳақида. / Айюб Фуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари.(Иллмий мақолалар тўплами).-Тошкент, 2012,-Б.48

⁵Пазлитдинова Н. Метафорик фитонимларнинг лисоний хусусиятлари. / Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари.Республика илмий-амалий анжуман матер. Андижон, 2017,-Б.105-106



1. meva navlari: kelinbarmoq, malikaning kiprilari,, sumbula (uzum);
2. sabzavot ekinlari navlari: oqdur(piyoz), qaldirg'och(shirin qalampir);
3. poliz ekinlari navlari: ko'kturna, tuliburun(qovun);
4. donli ekin navlari: tuyatish, gavhar(bug'doynavi).

Shoir she'riyatini kuzatar ekanmiz, unda ko'proq gul bilan bog'liq ko'chinlarning ifodalanganini ko'ramiz. Masalan:

Gul, kelding umrimning kuz pallasida,
Shamollar guvlaydi seni o'ylasam.

Gulbo'ron – ilk qorlar arafasida

Yuragim gullaydi seni o'ylasam.(17)

Oramizga kiprigingdan devor qo'yma,

Bag'rim o'yma, xudodan qo'rq, dilozorim.

Nargiz ko'zim, binafshabo'y, guluzorim,

Oshig'ingni tashlab qo'yma, bekor qo'yma. (10)

Tomirida **gulob** oqqan guloyim,

Guldek yashnab tur baxtinga iloyim.(234)

Ko'z munchog'ing qo'yma asti, dildorim,

Ay, aylanay, **noziknihol** qaddingdan.

Kuzagimni xushbo'y etgan **bahorim,**

Ay, aylanay, **atirgulim, atringdan.**(84)

Yuqorida keltirilgan misralarda **gul** leksemasi bilan bog'liq *gul, gulbo'ron (okkozionalizm), gullamoq, nargiz, binafshabo'y, guluzor, guldek, noziknihol atirgul* kabi leksemalar o'xshatish va metaforik ifoda hosil qilgan. **Kuzak** va **bahor** leksemalari gul bilan bog'liq ma'noning yanada ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. **Gul** leksemasi badiiy va so'zlashuv uslubida juda ko'p qo'llanadigan tasvir vositasi bo'lib, genderologik jihatdan, asosan, ayollarga (mashuqaga) nisbatan o'xshatish hamda ko'chma ma'nolarni ifodalashda qo'llanadi, ya'ni an'anaviy metaforalardir.

4.Kosmomorfik metafora. Osmon jismlari nomi asosida hosil qilingan metaforalardir. Bunday metaforalar *oy, quyosh, qamar, yulduz, osmon, nur, shu'la* kabi leksemalar ma'nosini metaforik usul bilan ko'chirish natijasida hosil bo'ladi. Bu turga kiruvchi metaforik ifodalar deyarli barcha ijodkorlar asarlarida uchraydi. An'anaviy metafora sifatida tilda o'rinishgan deyish mumkin. Ya'ni oy, quyosh, yulduz, osmon leksemalarining ko'chma ma'noda va o'xshatishli konstruksiyalarning hosil bo'lishida faol qo'llanadi:

Qay bir kecha **hilolga** may quyib ichdim,

Ko'zim yumib ikki qizdan birin quchdim(152)

Oy ishqida shoshqin **oftob** o'tayotir,

Shul hajrni men vaslga yetkursaydim.(194)

Yo jilg'asiz o'zanidan adashgan,

Yo **yulduzsiz** nogoh yerlarga tushgan. (132)

Berilgan misollarda **hilol, oy, oftob, yulduz** kabi leksemalar kosmomorfik metafora hosil qilgan. Bu metafora asosi nisbatan aniq deyish mumkin. Faqat hilol leksemasi bilan ifodalangan ko'chim uslubiy bo'yog'i yuqori sanaladi.



5. Abiomorfik metafora. Metaforalarning bu turiga sanab o'tilgan turlariga kirmaydigan, tabiatdagi jonsiz narsalarni ifodalovchi leksemalar ma'nosining metaforik ko'chirishdan hosil bo'lgan metaforalar (*temir, tosh, kishan*) kiradi. Bunday ko'chimlar shoir ijodida keng qo'llanganligini ko'rish mumkin. Masalan:

Uch kunda kuz keldi.

Dunyo qaridi.

Teraklar bosh chayqab qoldilar ma'yus.

Toshlar o'rmalaydi anhor qa'rida,

Anhor qaylargadir shoshadi hanuz (153).

Mana ustunlarga o'ralar shamol,

Mana, suv yuziga toshadi sepkil.

Zerikkan, asabiy qariqiz misol,

Ko'ylaklarin yirtib tashlar atirgul (153.)

Yuqorida keliririlgan misralarda qo'llangan *dunyo-qaridi* (*qarimoq insonga va hayvonga xos yosh bilan bog'liq holat: qari tulki, qari odam tarzida*), *teraklar-ma'yus*; *shamol-ustunga o'raldi*; *tosh-o'rmaladi*; *anhor-shoshdi*; *suv-yuziga sepkil toshmoq*; *atirgul-ko'ylaklarini yirtib tashladi* tarzidagi metaforik birikuvlar jonli metaforaga misol bo'ladi.

6. Teomorfik metaforalar ham shoir ijodida faol qo'llanganining guvohi bo'lishimiz mumkin:

Parilarki, dil qonidan pardozi,

Joning kuysa hamki, kelmas parvosi, (224)

Qay bir kecha hilolga may quyib ichdim,

Ko'zim yumib, ikki qizdan birin quchdim.

Endi kimni tanladim, deb jonim halak:

Birisining ismi – shayton, biri – malak. (152)

Yuqoridagi misralarda qo'llangan *pari, shayton, malak* leksemalari orqali hosil bo'lgan metaforik ko'chim teomorfik metafora sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzo ijodida qo'llangan metaforalar badiiy pardozi bo'libgina qolmay, shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shoir tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish barobarida o'zi ham original, yangi metaforalar yaratadi⁶. Iqbol Mirzo she'riyatida metaforik ma'no turli ko'rinishda namoyon bo'ladiki, bu ijodkorning tafakkur doirasi kengligini, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimov X. O'zbek tilida teomorfik metaforalar va ularning badiiy matndagi o'rni. // "Davlat tili taraqqiyoti: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2022.
2. Kabuljonova G. Yoqubboyeva Sh. Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llangan metaforalarning uslubiy xususiyatlari. // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon, 2022.

⁶Kabuljonova G. Yoqubboyeva Sh. Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llangan metaforalarning uslubiy xususiyatlari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman mater. Andijon, 2022.-B.118



3. Хо'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. // O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvistika. 2-kitob.- T.: Akademnashr, 2011.
4. Пазлитдинова Н. Метафорик фитонимларнинг лисоний хусусиятлари. // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман матер. Андижон, 2017.
5. Ўринов Б. Ҳайвон номлари билан ифодаланган метафораар ҳақида. // Айюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари.(Илмий мақолалар тўплами).-Тошкент, 2012.
6. Iqbol Mirzo. Ko'nglingda nima bor, bilmayman. –T.: Sharq, 2020.

